O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BOSHQA TARMOQLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI

MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING NAZARIY, TASHKILIY VA METODOLOGIK MASALALARI

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
MATERIALLARI
(2024 yil 15 noyabr)



SAMARQAND – 2024

IV-SHO‘BA. “RAQAMLI IQTISODIYOT” SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI SUB’EKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH..		
M.E.PO‘LATOV M.Q.NIZOMOV	XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLAR	231
MAMAYUNUS QARSHIBOEVICH PARDAEV NAJMIDDIN RAXMATULLAEVICH ABDUVOXIDOV	XIZMATLAR SOHASIDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING AYRIM OQIBATLARI HAMDA ULARNI OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISHNING USTIVOR YO‘NALISHLARI	235
IBRAGIMOV MANSUR MARDONOVICH	KLASTER TIZIMI UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI	238
PO’LATOV X. O’. QILISHEVA M.T.	XO‘JALIK YURITUVCHI SUB’EKTLAR FAOLIYATINI AUDITORLIK TAHLILINI O‘TKAZISH VA ULARGA AUDITORLIK BAHOSINI BERISH USLUBIYATI	240
XOLMAMATOV DIYOR HAQBERDIYEVICH AKTAMOV DILSHOD	OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SEGMENTLASH MEZONLARINING O‘RNI	244
DJUMAYEVA GUZAL AXTAMOVNA	FOYDALANISH HUQUQI KO‘RINISHIDAGI AKTIVLAR HISOBI	248
PO‘LATOV XUDOYBERDI O’KTAMOVICH SHAKAROV SHAHZOD SOBIR O‘G‘LI	BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARINI O‘RGANISHDA INGLIZ TILINING O‘RNI VA	251
BOYQOBILOVA IRODA JONTEMIR QIZI DAVRONOVA DILNOZA DAMIROVNA	XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATI BUXGALTERIYA HISOBI, HISOBOTINI MILLIY HAMDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH MASALALARI	257
O.T.SHIRINOVA	KORXONALARDA XUSUSIY KAPITAL HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	263
ORTIQOV ULUG‘BEK AKROMBEK O‘G‘LI	DIGITAL TRANSFORMATION:ESSENCE, CONDITIONS AND PERSPECTIVE	266

FOYDALANISH HUQUQI KO‘RINISHIDAGI AKTIVLAR HISOBI

Djumayeva Guzal Axtamovna – SamISI, assistent

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijaraga olingan foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlar hisobini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, me’yoriy-huquqiy hujjatlarda va adabiyotlarda ijaraga berilgan ta’riflar tanqidiy o’rganilgan. FHKA xalqaro standartlar asosida dastlabki tan olinishi va hisobda aks ettirilshi bo’yicha schotlar taklif etilgan hamda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so’zlar: ijara, moliyaviy lizing, ijara komponenti, ijara ob’yekti, foydalanish huquqi ko’rinishidagi aktiv(FHKA).

Bizning oldimizga xalqaro standartlarni o’rganish, milliy hisob tizimi bilan integrasiyalash masalasi, ta’lim sohasiga to’liq kiritish, xo’jalik yurituvchi tashkilotlarda MHXS talablari asosida hisob siyosatini ishlab chiqish, moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro tamoyillarga asosan tayyorlash, shuningdek buxgalteriya hisobi ob’yektlari(uzoq muddatli, joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital) hisobining konseptual asosinini takomillashtirish vazifasi qo’yilmoqda. Bilamizki, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlarni rivojlantirish, korxona faoliyatini kengaytirish uzoq muddatli aktivlarga talabni keltirib chiqaradi, shu o’rinda korxonalar oldida ikkita tanlov turadi, birinchisi uzoq muddatli aktivlarni sotib olish va ikkinchisi ularni ijaraga olish.

Korxonalarda ijara komponentlari tan olingandan so’ng bitim ijara shartnomasi hisoblanadi. Ijara shartnomasidagi ob’yekti ijaraga oluvchi uchun foydalanish huquqi ko’rinishidagi aktiv hisoblanadi.

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv (FHKA) – bu ijara oluvchining ijara muddati davomida tayanch aktivdan foydalanish huquqi.

FHKA boshlang‘ich qiymati bo‘yicha tan olinadi. Xalqaro standartga muvofiq uning boshlang‘ich qiymati quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- ijara bo‘yicha majburiyatlarning boshlang‘ich bahosi miqdorida;
- ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to‘lovlari;
- har qanday boshlang‘ich to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar;
- ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq bazovoy aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlar.

FHKA boshlang‘ich qiymati bo‘yicha tan olinishini Naturel MCHJ kompaniyasi misolda ko‘rib o‘tamiz.

Naturel MCHJ kompaniyasi 2023 yil 1 yanvarda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun burg‘ulash mashinasini ikki yilga ijaraga olish bo‘yicha shartnoma tuzdi. Shartnoma ikki yildan keyin zaruriyat bo‘lsa yana bir yilga uzaytirish mumkinlgini ham ko‘zda tutadi. Naturel MCHJ katta bir ehtimol bilan bunday imkoniyatdan foydalanish mumkin deb baholaydi. Burg‘ulash mashinasining xizmat qilish muddati 10 yil.

Birinchi ikki yilda ijara to‘lovlari 120 000 000 so‘m, uchinchi yil esa 150 000 000 so‘mni tashkil etadi. Barcha to‘lovlar yilning oxirida amalga oshiriladi. Ushbu ijarani tashkil etish uchun Naturel MCHJ korxonasi 32 500 000 so‘m boshlang‘ich to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni amalga oshirgan. Shartnomaga kiritilgan foiz stavkasini

aniqlashning imkoniyati yo‘q. Naturel MCHJ uchun qo‘shimcha jalb qilingan (qarz) mablag‘larining stavkasi – 14%.

Ijara majburiyatlarining boshlang‘ich qiymatini aniqlaymiz. Buning uchun esa quyidagi 2-jadvalni tuzamiz:

2-jadval

Ijara majburiyatlarining keltirilgan (privedennaya) qiymatini aniqlash hisob kitobi

Sana	Pul oqimi	Diskontlash stavkasi, %	Ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati
2023 yil 31 dekabr	120 000 000	$1/1.14$	105 263 158
2024 yil 31 dekabr	120 000 000	$1/1.14^2$	92 336 103
2024 yil 31 dekabr	150 000 000	$1/1.14^3$	101 245 727
Ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati			**298 844 988**

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivning (FHKA) boshlang‘ich qiymati aniqlaymiz. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, FHKAning boshlang‘ich qiymati ijara majburiyatlarining boshlang‘ich qiymati bilan ushbu ijarani tashkil etish, ijara ob’yektini keltirish, o‘rnatish va ishlatish bilan bog‘liq xarajatlar qo‘shiladi. Ushbu standart qoidalariga muvofiq holda FHKAni aniqlash uchun quyidagi 3-jadvalni tuzamiz.

3-jadval

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivning boshlang‘ich qimatini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblar

Xalqaro standartlarga muvofiq FHKAning boshlang‘ich qiymati elementlari	**Summa**
1. Ijara bo‘yicha majburiyatlarning boshlang‘ich bahosi miqdorida	298 844 988
2. Ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to‘lovlari	-
3. Har qanday boshlang‘ich to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlar	32 500 000
4. Ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq bazovoy aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlar	-
Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarning boshlang‘ich qiymati (298 844 988 + 32 500 000)	**331 344 988**

Amaldagi schotlar rejasida foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarni aks ettirish uchun schotlar ko‘zda tutilmagan. Shu sababli 21-son BHMS bilan tasdiqlangan buxgalteriya hisobi schotlar rejasiga quyidagi schotlarni kiritishni tavsiya etamiz.

4-jadval

Ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni hisobga olish maqsadida taklif etilayotgan schotlar

Schotning tartib raqami	**Taklif etilayotgan schotlarning nomi**
0300	**IJARA SHARTNOMASI BO‘YICHA OLINGAN ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHOTLAR**
0310	Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv
0320	Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalar
0298	Foydalanish huquqi ko‘rinishdagi aktivning eskirishi
0299	Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarning eskirishi

FHKA va ijara majburiyatlariga doir buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiramiz:

1. Ijara majburiyatlarining keltirilgan (privedennaya) qiymat summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:

D-t 0310 “Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv”..... 298 844 988 so‘m

K-t. 6910 “Ijara majburiyatlari”..... 298 844 988 so’m

Asos. Birinchi ikki yilda ijara to‘lovlari 120 000 000 so‘m, uchinchi yil esa 150 000 000 so‘mni tashkil etadi. Barcha to‘lovlar yilning oxirida amalga oshiriladi. Chetdan mablag‘ jalb qilish stavkasi 14%ni tashkil etadi. Hisob-kitoblarga asosan ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati 298 844 988 so‘mni tashkil etdi.

2. Ijaraga olingan obyekt bo‘yicha boshlang‘ich amalga oshirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlarga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:

D-t 0310 “Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktiv”..... 32 500 000 so‘m

K-t 6990 “Boshqa majburiyatlar”..... 32 500 000 so’m

Asos: Ijaraga olingan burg‘ulash mashinasini ishga tushirish uchun ish bajaruvchi tashkilot tomonidan 32 500 000 so‘mga ish bajarildi. Ish bajarilgan tashkilot tomonidan schot-faktura taqdim etildi. Naturel MCHJ tomonidan ushbu xarajatlar ijara olingan obyekt bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirilgan boshlang‘ich xarajatlar sifatida tan olindi.

Xulosa va takliflar.

Korxonalarda ijara olingan foydalanish huquqi ko’rinishidagi aktivlar hisobini takomillashtirish borasida quyidagi xulosalar qilindi:

Korxonalarda ijara shartnomalarining nafaqat huquqiy shaklini, balki iqtisodiy ahamiyatini xalqaro standartlar asosida tan olinishini joriy etish;

Ijara shartnomasida ijara komponentlari aniq ko’rsatilishiga va ularning identifikatsiyalanishiga erishish;

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlar va moliyaviy ijara (lizing)ga olingan asosiy vositalarni alohida guruhlash hamda ularni taklif etilayotgan shotlarda aks ettirish;

Foydalanish huquqi ko‘rinishidagi aktivlarning boshlang‘ich qiymatini xalqaro standartlarga asosan ijara bo‘yicha majburiyatlarning boshlang‘ich bahosi miqdorida, ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to‘lovlari har qanday boshlang‘ich to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar, ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq tayanch

aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobida aks ettirish.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida” qonuni. 19.11.1991yil, 427-XII-SON
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori. 2020 yil 24 fevral, PQ-4611-son
3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (2022) 16-son “Ijara”
4. Buxgalteriya hisobi milliy standarti (2004) 6-son “Ijara hisobi”
5. Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 b.
6. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2020, 558 b.
7. S. Tashnazarov. Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1 darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2023 - 438 bet.
8. Ergasheva Sh.T., Uchebnik «Mejdunarodnыe standartы finansovogo otchetnosti» –T.: TGEU, 2020 g
9. Hasanov B.A., Hashimov A.A., Muhametov A.B., Abduvohidov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik.- T.: ”Iqtisodiyot dunyosi” , 2021. 992 bet

BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARINI O‘RGANISHDA INGLIZ TILINING O‘RNI VA MOHIYATI

Po‘latov Xudoyberdi O‘ktamovich SamISI katta o‘qituvchisi:
Shakarov Shahzod Sobir o‘g‘li SamISI talabasi:

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro buxgalteriya hisobi standartlarini (BHXS) o‘rganishda ingliz tilining ahamiyati va uning o‘rganish jarayonidagi o‘rnini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan. BHXS global miqyosda buxgalteriya hisobotlarini yagona standart asosida olib borishni ta’minlaydi, ammo bu standartlar asosan ingliz tilida ishlab chiqilgan. Maqolada KPMG, Deloitte kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari asosida til to‘siqlari BHXSni samarali o‘zlashtirishga qanday ta’sir qilishi, til bilishning xalqaro buxgalteriya mutaxassislari uchun amaliy ahamiyati va xalqaro moliyaviy hisobotlarga bo‘lgan ehtiyoj haqida statistik ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro buxgalteriya hisobi, BHXS, buxgalteriya hisobotlari, ingliz tilining roli, xalqaro standartlar, til to‘siqlari, xalqaro buxgalteriya tajribasi, moliyaviy axborot, Deloitte tadqiqoti, xalqaro auditorlik, ACCA, CPA sertifikatsiyasi.